

## **MAKTAB DARSLARIDA PUNKTUATSIYA BO'LIMINI O'QITISHNING ASOSIY MASALALARI**

**Erkinova Nodira Ma'murjon qizi**

Andijon davlat universiteti

Filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi

Telefon: + 998 33 003 73 04

**Annotatsiya:** ushbu maqolada tilshunoslik bo'limganidan biri hisoblangan punktuatsiya bo'limining asosiy xususiyatlari haqida ma'lumotlar berilgan va maktab darslarida bu bo'limni qanday o'rgatish haqida tavsiyalar ham yozilgan.

**Kalit so'zlar:** tinish belgilari, gap bo'laklari, sintaksis, qo'shma gap turlari, uyushiq bo'lakli gaplar.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация об основных особенностях раздела пунктуации, который является одним из лингвистических разделов, а также даны рекомендации по преподаванию этого раздела на школьных уроках.

**Ключевые слова:** пунктуация, части речи, синтаксис, типы союзов, сложные предложения.

**Annotation:** This article provides information on the main features of the punctuation section, which is one of the linguistic sections, and also provides recommendations on how to teach this section in school lessons.

**Keywords:** punctuation, parts of speech, syntax, types of conjunctions, compound sentences.

Ona tili darslarida sintaksis bo'limini o'rgatish punktuatsiya bilan birlashtiriladi. Punktuatsiyasiz sintaksisni o'rghanib bo'lmaydi. Maktabda punktuatsiya boshlang'ich sinflarda o'qitala boshlanib, 8-9-sinflarda muntazam o'rgatiladi. 8-sinfda punktuatsiya o'rgatish darak, so'roq, buyruq, istak gaplar hamda his-hayajon gaplarga bog'lab, ularda nuqta, so'roq va undov belgilarini qo'llashini tushuntirishdan boshlanadi. Sintaktik konstruksiyalarini erkin tahlil qila oladigan o'quvchigina punktuatsiyani ongli va puxta o'zlashtiradi. Punktuatsiya o'qitishda onglilikni ta'minlash uchun o'qituvchi mavzularni punktuatsiyaga bog'lashi juda zarur. O'quvchi har bir gapning mazmuniga to'la tushungan bo'lihsiga bilan birlashtiriladi. Undagi tinish belgining nima uchun ishlatilganligi, uning sintaktik vazifasi nimadan iborat ekanligini aniq tasavvur qilib turish kerak. Masalan, "Bog'imizda olma, anor, nok, uzum – hamma mevalar pishdi" gapida nima sababdan vergullar va tire ishlatilishini o'quvchi shunday tahlil qildi: - Bu gapda uyushiq bo'laklar (olma, anor, nok, uzum) va ulardan so'ng umumlashtiruvchi bo'lak (hamma mevalar) mavjud bo'lganligi sababli vergullar va tire qo'yilyapti. Darsda yana quyidagi sintaktik-punktuatsion tahlil o'tkazish mumkin. O'quvchi biror matnni aytib beradi, o'quvchilar tinish belgilarini mustaqil qo'yadilar. Matn yozib bo'lingach, o'quvchilar tinish belgilarining qo'yilishi sababini izohlaydilar. Ko'pincha o'quvchilar gapni sintagmalarga ajratishda va gapdagi sintagmalar orasida vergulning qo'yilgan yoki qo'yilmagan o'rinalarida yanglishadilar. Gapdagi sintagmalar har doim ham vergul bilan ajratilavermaydi: Mening kichik ukam / Qo'qon davlat pedagogika institutida / bilimlarni chuqur egallamoqda. Bu gapda uchta sintagma bo'lib, uni o'qishda uch marta pauza bo'ladi, lekin bu pauzalr hech qanday tinish belgisi bilan ajratilmaydi.

Punktuatsiya mashqlaridan yana biri o'quvchilarning o'zi, punktuatsiya qoidasiga mos keladigan misollar totib, tinish belgilarining ishlatilish sababini tushuntirishdir. Masalan, 8-sinfda gap bo'laklari sanalmaydigan kiritma, undalma kabi mavzular o'tib bo'lingach, o'qituvchi bu mavzuga oid misollar topishni o'quvchilarga topshiradi. hamda tinish belgilarining ishlatilish o'rinalari izohlanadi. Ish turlaridan yana biri tinish belgilar tushirib qoldirilgan matnning tinish belgilarini qo'yib ko'chirish va ishlatilgan tinish belgilarini izohlashdir. Matn tinish belgilarining turli xillarini o'z ichiga olgan bo'lish kerak. Mashqning bu turi

puntuatsiya o'rgatishda keng tarqalgan usul bo'lib, dastavval, o'quvchilarning mustaqil ishlash faoliyatini yaxshilaydi. Punktatsiya o'qitishda turli xildagi diktantlar o'quvchilarning xatosiz yozish malakasini takomillashtirishda katta ahamiyatga egadir. O'qituvchining diktovkasi orqali o'quvchilar tinish belgilarning qo'yilishi pauza, logic urg'u kabilarga ham bog'liq ekanligini uqib oladilar. Ta'kidiy diktantni o'tkazishdan oldin o'qituvchi o'quvchilarga punktuatsion xato qilishlari mumkin o'rinarini eslatib, ayirim punktuatsiya qoidalarini ta'kidlaydi va undan so'ng diktovka qiladi. Nazorat diktantida esa bir necha tinish belgilarini o'z ichiga olgan matn tanlab olib, uni diktovka bilan yozdiriladi. Bunday diktant oraqali o'qituvchi o'quvchilarning umumiy punktuatsion savodxonligini sinab ko'radi.

Punktatsiya bilan bog'liq ish turlaridan yana biri stilistik mashqdir. Bunday mashq nutq o'stirish bilan ham bog'lab olib boriladi. O'quvchi bir sintaktik konstruksiyani boshqasi bilan almashtiradi:

1.Uyushiq bo'lakli gaplarga umumlashtiruvchi so'z qo'yib, tinish belgilarini to'g'ri ishlatish. Bahorda hamma qushlar: laylaklar, chittaklar, bulbullar uchib keladi. Laylaklar, chittaklar, bulbullar – hamma qushlar bahorda uchib keladi.

2.Bog'langan qo'shma gapni ergash gapli qo'shma gapga aylantirish va uning aksi:

Bahor keldi va gullar ochildi. Bahor kelgach, gullar ochildi.

3.Sodda yoyiq gapni qo'shma gapga aylantirishi va buning aksi: Ko'rinishidan uning juda mammunligini sezdim. Ko'rinishidan shuni sezdimki, u juda mammun.

4.O'zlashtirma gapni ko'chirma gapga, ko'chirma gapni esa o'zlashtirma gapga aylantirish "Men ertaga kutubxonaga boraman", -dedi Anvar. Anvar ertaga kutubxonaga borishini aytди.

O'quvchilarning yozma ishlarida punktuatsion xatolarning quyidagi xillari uchraydi: 1) kerakli tinish belgisini qo'ymaslik; 2) tinish belgisini ortiqcha qo'llash; 3) tinish belgilarini qorishtirish: birining o'riga boshqasini qo'llash; 4) belgilardan birini tushirib qoldirish.

Agar o'quvchi gapda tinish belgilarini nima uchun va qayerga qo'yish kerakligini bilmasa, uni qo'yimagani ma'qul: zarur tinish belgisini qo'ymay, biror tinish belgisini tavakkal, ammo noo'rin ishlataverish xavfliroq, bu ham o'quvchining, ham o'qituvchining ishini murakkablashtiradi. Agar o'quvchi gapda biror tinish belgisini qo'yagan bo'lsa, demak, u shu tinish belgisining ishlatilishi bilan aloqador bo'lган punktuatsion qoidani bilmaydi yoki uni yaxshi o'zlashtirmagan bo'ladi. Agar o'quvchi tinish belgisini ortiqcha qo'ysa, u tinish belgisini asosiz qo'yaverishiga odatlanib qo'lган bo'ladi. O'quvchilarning punktuatsion xatolarini tahlil qilishga bag'ishlangan ish turlari juda foydalidir. Unda o'quvchilarning punktuatsion xatolari ko'rsatilibgina qolmay, uning sabablari ham tushuntiriladi, qoida va ta'riflar eslanadi, amaliy-ijodiy mashqlar bajartiriladi. Shundagina o'quvchilar tinish belgilarini qo'llashga ongli ravishda yondashadilar. Darsni ko'rgazmali o'quv qurollaridan foydalanib o'tish punktuatsiyani o'zlashtirishni yengillashtiradi. Punktuatsiya darslarini ko'rgazmali qurollarning eng ko'p qo'llanadigan turi – jadval va sxemalar yordamida o'tish mustahkamlash darslari uchun ham juda muhimdir. Masalan, o'quvchilarga biror punktuatsiya qoidasiga mos keladigan sxema chizib ko'rsatiladi va bu sxema qaysi punktuatsiya qoidasiga tegishli ekanligi so'ralib, unga mos misollar topish vazifa qilib topshiriladi.

Biz kitobni sevamiz, chunki u bilim manbayidir.

Yuqoridagi sabab ergash gapli qo'shma gap bo'lib, ergash gap tarkibida kelgan chunku ergashtiruvchisi bog'lovchisidan oldin vergul qo'yilyapti.

Kichik yoshdagagi o'quvchilarni tinish belgilari bilan tanishtirishda o'qituvchi, avvalo, ularning yozma nutqda ishlatilishi va o'rnini ko'rsatadi. Tinish belgisi fikrni to'g'ri, boshqalarga tushunarli qilib ifodalash uchun muhim ekanini tushuntiradi. Masalan, nuqtaning roli bilan elementar tarzda tanishtirish uchun gaplarga ajratilmagan (tinish belgilar qo'yilmagan) yaxlit matn o'qtiladi; o'quvchilar bunday matnni o'qish va mazmuniga tushunish qiyin ekanligiga ishonch hosil qiladilar.

Punktatsiya semantik, sintaktik va intonatsion qoidaga asoslanadi. Bu uch asos bir-biriga o'zaro ta'sir qiladi. Xat yozuvchi tinish belgisini qo'yishda, avvalo, bayon etadigan fikrining mazmuniga asoslanadi. Nutqning mazmun tomoni gapning qurilishiga ham ta'sir qiladi. Shuning uchun o'quvchilarga tinish belgilarining qo'llanilishini o'rgatishda biror gapda tinish belgilarini qo'llashni belgilaydigan semantik-sintaktik tamoyilga asoslaniladi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar har xil mashqlarni ishlash orqali tire va ikki nuqtaning ishlatilishi bilan amaliy tanishadilar. Savod o'rgatish davridayoq o'qituvchi o'quvchilar e'tiborini vergul, tire, ikki nuqtaning ishlatilishiga qaratadi, matnni o'qiganda bu tinish belgilariga rioya qilishni o'rgatadi. Masalan, Olma, olcha, nok – meva. Kitob – bilim bulog'i.

O'quvchilarga tinish belgilarini ishlatish qoidalarini to'la singdirish, ularni tinish belgilarini o'z o'mida ongli ishlatishga o'rgatish maqsadida sintaktik-punktuatsion tahlil, tinish belgilari tushirib berilgan matnning tegishli tinish belgilarini qo'yish, ta'kidiy eslatish diktanti, bayon va inshoda tinish belgilarining ishlatilishini izohlash kabi mashqlardan foydalaniлади.

Ona tili darslarini o'qish darslari bilan bog'lash sintaksis va punktuatsiya elementlari ustida ishlashning metodik shartlaridan biri hisoblanadi. O'quvchilar bu darslarda sintaksis sohasidagi bilimlariga asoslangan holda ifodali o'qish, so'zni aniq ishlatish, o'z fikrlarini grammatik to'g'ri shakllantirishga o'rganadilar. Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarining gap haqidagi elementar bilimlari og'zaki va yozma nutqda gapdan ongli foydalanishni ta'minlaydi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:**

1. To'xliyev B., Shamsiyeva M va boshqalar. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – Toshkent.: Yangi asr avlod. 2001.
2. G'ulomov A., Qodirov M. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent.: Universitet. 2001.
3. Roziqov O., Mahmudov M va boshqalar. Ona tili didaktikasi. – Toshkent.: Yangi asr avlod. 2005.